

KOSON TUMANIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

Norqulova Nilufar

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koson tumanida kuzatilayotgan ekologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Tuman hududida suv resurslarining kamayishi, tuproqning sho'rlanishi, havoning ifloslanishi hamda yashil maydonlarning qisqarishi asosiy ekologik muammolar sifatida ko'rsatilgan. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha samarali chora – tadbirlar taklif etilgan bo'lib, ekologik muvozanatni saqlashni ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ichimlik suvi, bo'z tuproq, drinaj, suv ombor, quduq, Kontiner, organik chiqindi, qishloq xo'jaligi, sho'rlanish.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В РАЙОНЕ КАСОН И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Норкулова Нилуфар – студентка

Каршинского государственного университета

Аннотация: В статье рассматриваются экологические проблемы, наблюдаемые в Косонском районе, их причины и влияние на окружающую среду. К основным экологическим проблемам района относятся истощение водных ресурсов, засоление почв, загрязнение воздуха и сокращение площади зелёных насаждений. В статье предлагаются эффективные меры по устранению этих проблем и обосновывается важность поддержания экологического равновесия.

Ключевые слова: питьевая вода, серозем, дренаж, резервуар, скважина, контейнер, органические отходы, сельское хозяйство, засоление.

ECOLOGICAL PROBLEMS IN KASON DISTRICT AND WAYS TO SOLUTION THEM

Norqulova Nilufar – student of Karshi State University

Abstract: This article discusses the environmental problems observed in the Koson district, their causes and impact on the environment. The main environmental

problems in the district include depletion of water resources, soil salinization, air pollution, and reduction of green spaces. The article proposes effective measures to eliminate these problems and justifies the importance of maintaining ecological balance.

Keywords: drinking water, gray soil, drainage, reservoir, well, container, organic waste, agriculture, salinization.

Asosiy qism: Geoekologik muammo — bu tabiiy geografik muhit (yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot dunyosi) bilan insonning xo'jalik faoliyati o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keladigan ekologik muammo hisoblanadi. Geoekologik muammolar — bu tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat buzilishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab, ko'p omilli masalalar bo'lib, ularni hal etish uchun ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur.

Geoekologik muammolar hududlarda inson faoliyati va tabiiy muhit o'rtasidagi muvozanat buzilganda vujudga keladi. Har bir hududda bu muammolar tabiiy sharoit, resurslardan foydalanish darajasi va xo'jalik faoliyatining turiga qarab turlicha shakllanadi.

Koson tumani – O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati joylashgan. Koson Respublikamizdagi dastlab asos solingan tumanlardan biri bo'lib, unga 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Uning markazi koson shahri. Aholisi 300,5 ming kishi (2022-yil) Qashqadaryo viloyatida 1-o'rinda. Maydoni 1,88 ming km. Dengiz sathidan balandligi 450-500m. Koson tumanida bir qator ekologik muammolar bor. Koson tumanida chiqindi muammosi eng dolzarb ekologik muamolardan biri hisoblanadi. Koson tumanida aholi sonining ortishi, sanoat, qishloq xo'jaligi, maishiy faoliyatlarning kengayishi natijasida chiqindilar miqdori yildan-yilga ortib bormoqda. Bunga sabab qayta ishlash tizimining sustligi, chiqindilarni saralash va qayta ishlash zavodlari yetarli emasligi, ishlab chiqarish korxonalarining nazoratsiz chiqindisi sanoat chiqindilari ekologik talablarga rioya qilmasdan tashlanadi. Kommunal xizmatlarning yetarlicha ishlamasligi, ayrim mahallalarga chiqindi tashish mashinalari muntazam kelmaydi, bu muamolar oqibatida havo sifati yomonlashadi. Chiqindini yoqish natijasida tutunlar va zaharli gazlar ajralib chiqadi, buning natijasida insonlarda allergiya, teri kasalliklari, nafas olish, yo'llari kasalliklari ko'paymoqda. Koson tumanidagi suv muammosi bugungi kunda muhim ekologik va ijtimoiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Koson tumani asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hudud hisoblanadi. Aholining ko'p qismi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Oxirgi yillarda bu tumanda suv tanqisligi, suv sifati yomonlashuvi va irrigatsiya tizimining yomonlashuvi kabi muamolarga duch kelmoqda. Sug'orish kanallari va yaroqsiz holga kelgan. Koson tumanining asosiy suv manbai qashqadaryo. Qashqadaryo va uning irmoqlaridagi suv miqdori kamaygan. Bahor va yoz oylarida harorat juda yuqori

bo'lgani sababli suv tez bug'lanadi. Tog'larda qor kam yog'adi va erta eriydi, natijada daryoga keladigan suv hajmi qisqaradi. Qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalar yetarli darajada qo'llanilmaydi. Aholining ko'payishi natijasida ichimlik suvi iste'moli ortib bormoqda, bu muammolar oqibatida. Hosildorlik kamayadi ekinlar suv yetishmasligi natijada, ular quriydi. Iflos suv ichish natijasida turli kasalliklari ko'payadi.

Tuproq sho'rlanadi, o'simlik va hayvonot dunyosi kamayadi. Koson tumanida yerlarning sho'rlanishi, qishloq xo'jaligi uchun katta muammo hisoblanadi. Bu holat asosan sug'orish tizimlari, iqlim va yer osti suvlarining tuz miqdori bilan bog'liq. Ko'plab qishloq xo'jaligi yerlari daryolar va kanallardan olinadigan suv bilan sug'oriladi, suvdagi tuz miqdori yuqori bo'lsa, u tuproqni sho'rlantiradi. Kanallar va quvurlar yetarli darajada ta'mirlanmagan, suv oqimi nazoratsiz bo'lib, yer yuzasida to'planadi natijada tuproqning sho'rlanishi tezlashadi. Quruq va issiq iqlim tuproqdagi suvni tez bug'latadi. Tuzlar yuqoriga chiqadi va yer yuzasida qattiq sho'r qatlam hosil qiladi. Yomg'ir yetishmasligi va yer osti suvlari sho'r qatlamlari yuzaga chiqadi. Doimiy bir xil maydonlarni sug'orish va o'g'itlarni ortiqcha qo'llash tuproq sho'rlanishini kuchaytiradi, natijada ekinlar yaxshi o'smaydi, ko'pincha quruq va sho'r yerlar hodildorligi past bo'ladi, sho'rlangan tuproq uzoq muddatda, tabiiy ravishda tiklanmaydi. Bu muamolarni hal etish uchun suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, kanallarni betonlash va ta'mirlash, aholini suvdan oqilona foydalanishga o'rgatish.

Yangi suv omborlari va quduqlar qurish. Chiqindi muammolarini hal etish uchun shahar va qishloq hududlarida axlat qutilari va konteynerlarini ko'paytirish, chiqindilarni vaqtida va muntazam olib ketish xizmatlarini yo'lga qo'yish, chiqindilarni qayta ishlash zavodlarini yo'lga qo'yish organik chiqindilarni kompostlash orqali bog' va dehqonchilikda foydalanish, sanoat chiqindilarini ekologik xavfsiz yo'llar bilan utilizatsiya qilish, chiqindilarni energiyaga aylantirish biogas, biokarbonat va boshqa energiya manbalariga aylantirish. Sho'rlanish muammosi kamaytirish uchun sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish kerak. Tuzli yerlarni drenaj tizimlarini orqali tuzdan tozalash

Xulosa: Koson tumanidagi ekologik muammolar nafaqat tabiiy resurslar, balki aholining, hayot sifati uchun ham jiddiy xavf tug'dirmoqda, shu sababli ekologlar va aholi hamkorligi bilan samarali chora – tadbirlar ishlab chiqishi muhimdir. Ekologik ongni oshirishva tabiiy resurslarni tejash orqali hududning barqaror rivojlanishi ta'minlash mumkin.

Koson tumanida ekologik muammolar, xususan, atmosfera havosining ifloslanishi, yerlarning sho'rlanishi, suv resurslarining tanqisligi va chiqindilarni to'g'ri boshqarilmasligi kabi masalalar atrof-muhit barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holat nafaqat tabiiy resurslarning kamayishiga, balki aholining sog'lig'iga ham xavf tug'dirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik

muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv, davlat va jamoatchilik hamkorligi, hamda ekologik madaniyatni yuksaltirish zarur.

Koson tumanida amalga oshirilayotgan ayrim ijobiy ishlar — daraxt ekish aksiyalari, chiqindilarni saralash tashabbuslari va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish — muammoning yechimiga yo‘l ochmoqda, biroq bu chora-tadbirlarni keng ko‘lamda va uzluksiz davom ettirish talab etiladi.

Takliflar

1. **Ekologik monitoring tizimini takomillashtirish:** havo, suv va tuproq sifatini muntazam nazorat qilish uchun zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish.

2. **Chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish:** Koson tumanida chiqindilarni saralovchi va qayta ishlovchi kichik korxonalar ochish.

3. **Qishloq xo‘jaligida ekologik texnologiyalarni joriy etish:** suvni tejaydigan tomchilatib sug‘orish tizimlarini kengaytirish, pestitsidlardan me‘yorda foydalanish.

4. **Aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish:** maktab va mahallalarda ekologiya bo‘yicha targ‘ibot, seminar va tanlovlar o‘tkazish.

5. **Yashil hududlarni kengaytirish:** tuman markazi va chekka qishloqlarda ko‘chat ekish, yangi park va xiyobonlar barpo etish.

Tavsiyalar

- Koson tumani hokimligi huzurida **“Ekologiya bo‘yicha jamoatchilik kengashi”** tashkil etish;
- Mahalliy sanoat korxonalariga ekologik standartlarga rioya etish majburiyatini kuchaytirish;
- Yoshlar va talabalarning **“Yashil yurtim”** kabi ijtimoiy loyihalarda faol ishtirokini ta‘minlash;
- Ekoturizm yo‘nalishlarini rivojlantirib, tabiiy resurslardan foydalangan holda iqtisodiy va ekologik muvozanatni saqlash;
- Ekologik muammolarni hal etishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov I. B., Rasulov F. I. Development of social spheres in the cities of Kashkadarya region //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 4. – C. 85-90.
2. Safarov I. B., Chorshanbiyeva R. A. Qashqadaryo viloyatidagi ekologik-geografik muammolar //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – C. 153-157.
3. Qurbonov P. R., Qo‘Ldosheva G. M. Ecological-geographical problems in the residential areas of kashkadarya region //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – C. 617-619.
4. Qurbonov P. R., Botirov B. Z. The impact of global climate change on urban development //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – C. 613-616.

6. Qurbonov P. R. Iqlim o'zgarishi sharoitida tekislik mintaqasi shaharlarining rivojlanish xususiyatlari (Janubiy O'zbekiston misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 210-214.
7. Eshboyev B. T., Bozorov M. I. Etnotoponimlar va ularning toponimik tahlili //Экономика и социум. – 2024. – №. 11-1 (126). – С. 127-131.
8. Navotova D. I. Internal differences in the use of land resources in the agriculture of Kashkadarya region //Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – T. 16. – С. 100-104.

